

IJTIMOYIY-IQTISODIY QARAMLIKKA MOYIL SHAXSLARDA MUVAFFAQIYATGA INTILISH VA MUVAFFAQIYATSIZLIKDAN QO'RQISH MOTIVATSIYASINING O'ZIGA XOSLIGI

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqola shaxsning muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish motivatsiyasining shaxs hayotidagi ahamiyatini o'rganib, ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslar xulq-atvorida muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish motivatsiyasining emperik tadqiqot natijalari tahliliga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, muvaffaqiyat, muvaffaqiyatsizlik, motiv, qiziqishlar, ehtiyoj.

ОСОБЕННОСТИ МОТИВАЦИИ К УСПЕХУ И СТРАХА НЕУДАЧИ У ЛИЦ С ВЫРАЖЕННОЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЗАВИСИМОСТЬЮ

Шарапова Дилдора Бахтияровна

Докторант НИИ «Семья и женщина».

Аннотация. В данной статье рассматривается значение у человека мотивации успеха и страха неудачи в личной жизни, и она посвящена анализу результатов эмпирического исследования мотивации успеха и страха неудачи в поведении людей, склонных к социально-экономической зависимости.

Ключевые слова: Мотивация, успех, неудача, мотив, интересы, потребность.

CHARACTERISTICS OF MOTIVATION TO SUCCESS AND FEAR OF FAILURE IN PERSONS PROMINENT TO SOCIO-ECONOMIC DEPENDENCE

Sharapova Dildora Bakhtiyarovna

Doctoral student of the Research Institute «Family and Women».

Abstract. This article examines the importance of success motivation and fear of failure in personal life in a person, and it is devoted to the analysis of the results of an empirical study of success motivation and fear of failure in the behavior of people prone to socio-economic dependence.

Key words: Motivation, success, failure, motive, interests, need.

Kirish. Motivatsiya murakkab psixologik hodisa bo'lib, turli xil psixologik tushunchalarga amal qiluvchi psixologlar orasida juda ko'p bahs-munozaralarga sabab bo'ladi. Psixologiya va biologiyada motivatsiya atamasi boshqacha ma'noga ega. Psixologiyada motivatsiya – bu, inson faoliyatini rag'batlantiradigan narsa, buning uchun u amalga oshiriladi. Keng ma'noda psixologiyada motivlarga ehtiyoj va instinktlar, harakat va hissiyotlar, munosabat va ideallar kiradi. Muvaffaqiyat motivatsiyasi, eng avvalo, muvaffaqiyatga intilish, o'z faoliyatida yuqori natijalarga erishishdir. Agar biror kishi muvaffaqiyatga, faoliyatda yuqori natijalarga erishishga intilsa, unda u juda kuchli muvaffaqiyat motivatsiyasiga ega. Ba'zi odamlarda muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya juda katta ahamiyatga ega, boshqalari uchun bu unchalik muhim emas. Bunga qarab, inson o'z kasblarining turini va intensivligini aniqlaydi. Yutuq motivatsiyasining mavjudligini belgilovchi omillarga quyidagilar kiradi:

- yuqori natijalarga (muvaffaqiyatga) erishish istagi;
- hamma narsani iloji boricha yaxshiroq qilish istagi, eng yaxshisi;
- murakkab vazifalarni tanlash va ularni bajarish istagi;
- o'z mahoratini oshirish istagi.

Asosiy qism. Psixologiyada motivatsiyaning ikkita asosiy turi mavjud, bular: ijobiy va salbiy motivatsiyadir.

- Ijobiy motivatsiya – ijobiy ustanovkalar ya'ni pul ko'rinishidagi mukofotlar, lavozimga ko'tarilish, e'tirof etish, ishda yuqori daromad va'da qilish va boshqalar asosida shakllanadi.

- Salbiy motivatsiya – salbiy ustanovkalar, ya'ni berilgan topshiriqni bajarmaganlik uchun ish joyini yo'qotish, obro'-e'tiborni kamaytirish, tanbeh berish bilan tahdid qilish va boshqalar shaklida jazolar asosida shakllanadi.

Insonning motivatsion sohasi juda murakkab tuzilmadir. Uning shakllanishi inson hayoti davomida

va asosan bolalik davrida, bolaning rivojlanishi jarayonida sodir bo'ladi. Bu qanday bo'lishi otanalar, o'qituvchilar va atrof-muhitning tarbiyaviy ta'siriga bog'liq.

Motivatsiya muammosini o'rganishning uslubiy tamoyillari mahalliy va xorijiy o'qituvchilar va psixologlarning ishlarida shakllangan. Muvaffaqiyat motivatsiyasi muammolarini L.I.Bojovich, I.V.Imedadze, A.N.Leontiev, A.K.Markova, V.Ya.Laudis, D.B.Elkonina, T.O.Gordeeva, V.I.Stepanskiy, E.A.Bulatova, M.V.Kondratieva, L.M.Mitina, E.P.Ilyin, V.V.Yastrebov va boshqalar ishlarida keltirilgan. Muvaffaqiyat motivatsiyasining ishlash shakllari esa N.A.Baturin, L.V.Borozdina, V.K.Gerbachevskiy, Yu.M.Orlov, M.Sh.Magomed-Eminov, J.Atkinson, B.Vayner, D.Makklelland, R.Nygaard, J.Nikols va boshqalar ilmiy ishlarida yoritilgan. Uzoq vaqt davomida muvaffaqiyat motivatsiyasining dominant nazariyalari MakKlelland, Atkinson va Xekxauzen [18] tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ular muvaffaqiyat motivatsiyasini muvaffaqiyatga erishish motivi va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi o'rtasidagi hissiy ziddiyatning natijaviy tendentsiyasi sifatida tushundilar. J. Atkinson D. Makklellandning qarashlarini o'zgartirib, muvaffaqiyatga erishish zarurati boshqa asosiy ehtiyoj - muvaffaqiyatsizliklardan qochish bilan birga ko'rib chiqilishi kerakligini ko'rsatdi [12].

Atkinson va Feather (1966) insonning muvaffaqiyatga erishish ehtimolini idrok etishi ikki turdagi motivlardan kelib chiqishiga e'tiborni qaratdi, bular, muvaffaqiyatga erishish (yutishga bo'lgan ehtiyoj) va muvaffaqiyatsizlikdan qochish (muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish) [12].

Muvaffaqiyat motivi quyidagilarga asoslanadi:

- 1) muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj;
- 2) shaxsning muvaffaqiyatga erishish ehtimoli haqidagi tasavvuri;
- 3) shaxsning natija qiymatini idrok etishi.

Harakatni bajarish uchun motivatsiya kuchi motiv kuchining multiplikativ funktsiyasi, harakat natijasida rag'batlantirishga erishishni kutish (subyektiv ehtimollik) va rag'batning qiymati deb taxmin qilinadi:

Motivatsiya = (Motiv × Kutish × Rag'bat)" [12].

Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi quyidagilarga asoslanadi:


- 1) muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik zarurati;
- 2) shaxsning muvaffaqiyatsizlik ehtimoli haqidagi tasavvuri;
- 3) shaxsning muvaffaqiyatsizlik oqibatlarini idrok etishi.

Motivatsiya, u ham ichki va tashqi motivatsiyaga bo'linadi (u o'quvchining yangi bilim, ko'nikma va malakalarni o'rganish va egallashga bo'lgan ichki istagini belgilaydi) va tashqi motivatsiya (u ma'lum bir mukofot olish istagi orqali talabanning o'rganish istagini belgilaydi) [9].

Tadqiqot natijalari. T.Elers so'rovnomasi bo'yicha muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik motivatsiya darajasini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatga erishishga intilmagan talabalar muvaffaqiyatsizlikdan qochish uchun yuqori motivatsiyaga ega.

Muvaffaqiyat – bu, insonning faoliyat jarayonida intilgan natijasi uning kutganlariga to'g'ri kelganligi yoki ulardan oshib ketganligidan xursandchilik, qoniqish tajribasini anglatadi. Bu holat faoliyat uchun yangi, kuchli motivlarni keltirib chiqarishi, o'zini o'zi qadrlash darajasini o'zgartirishi mumkin. Shaxsning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini shakllantirish ularga optimal xulq-atvor strategiyalari orqali o'zini samarali amalga oshirishga imkon beradi, aksiologik, kompetentsiya, shaxsiy, xulq-atvor, refleks, kommunikativ va hissiy tarkibiy qismlarni rivojlantiradi.

1-rasm. Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish motivatsiyasi so'rovnoma natijalari



Biz "Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish motivatsiyasi"ni o'rganish


bo'yicha o'tkazgan metodikamizda ijobiy yoki salbiy ta'kidlardan mosini qo'yish tablab etildi. Bunda natijalar 1-7 ball muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish motivatsiyasining ustunligini, 8-13 ball muvaffaqiyatga bo'lgan munosabat bilan bog'liq motivatsion qutbning yaqqol emasigini, 14-20 ball muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasining ustunligini bildiradi. 4-rasm. Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish motivatsiyasi

Metodika orqali sinaluvchilarda muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv past ekanligini (4%), muvaffaqiyatga bo'lgan munosabat motivatsiya bilan uyg'unlikka ega emasligi va muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi ko'rsatkichi (48%) teng.

Jadval – 1

Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatdan qochish motivatsiyasining boshqa natijalar bilan o'zaro korrelyatsion bog'liqligi

Jadval – 1	Ma'naviy motiv	Shaxs sifatidagi ustuvor	Muvaffaqiyatga intilish va	Oz-ozini hurmat qilish	O'z qo'li bilan kop narsa qila	Tashqi ko'rinish	o'ziga bo'lgan ishonch	Shaxs irodasi
Ma'naviy motiv	1	,233(**)	,263(**)	,135(**)	,123(**)	0,026	,170(**)	,221(**)
Shaxs sifatidagi ustuvor orientatsiyalar		1	,203(**)	,307(**)	0,011	-0,01	,116(*)	0,072
Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatdan qochish motivatsiyasi			1	,152(**)	,121(**)	,134(**)	,217(**)	,170(**)
O'z-o'zini hurmat qilish				1	0,045	0,013	0,087	,195(**)
O'z qo'li bilan kop narsa qila olish					1	,641(**)	,611(**)	,128(**)
Tashqi ko'rinish						1	,552(**)	,121(**)
O'ziga bo'lgan ishonch							1	,140(**)
Shaxs irodasi								1



2-rasm. Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatdan qochish motivatsiyasining boshqa metodikalar o'zaro korrelyatsion bog'liqligi

Yuqorida keltirilgan jadvalga asosan muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatdan qochish motivatsiyasi 99,9% aniqlik bilan shaxsning ma'naviy motivi, shaxs sifatidagi ustuvor orientatsiyalar, o'z-o'zini hurmat qilish, o'z qo'li bilan ko'p narsa qila olish, tashqi ko'rinish, o'ziga bo'lgan ishonch, shaxs irodasi bilan korrelyatsion aloqadorlikka ega.

Mulohaza va munozaralar. Muvaffaqiyatga intiluvchanlik odamlarda ma'naviy motiv ustunlikka ega bo'lganligi bilan o'zaro aloqadorlikka ega. Ya'ni, ular o'z ustilarida ishlashlari va o'zining ma'navati, salohiyatini oshirishga intiluvchanliklarida aks etadi. Ma'naviy dunyoqarashi keng inson o'z maqsadini to'g'ri belgilay olishi va shu yo'lda intilib, muvaffaqiyatga intilishi o'z isbotini topdi.

Shaxs sifatidagi ustuvor orientatsiyalar shaxsning motivatsion sohasi bilan chambarchas bog'liqlikka ega ekan, shu o'rinda ustuvor yo'nalganlik motivlar kurashida, muvaffaqiyatga intilish va unga erishishda asosiy poydevor vazifasini o'taydi. Har bir shaxs o'zining shaxs sifatidagi ustuvor orientatsiyasini anglashi ortidan muvaffaqiyatga intilish, muvaffaqiyatsizlikka nisbatan teskari reaksiya, o'z oldiga qo'ygan maqsadi yo'lida harakat qilishi, o'zi uchun to'g'ri harakat strategiyasini tuzib olishi va shunga ko'ra harakat qilishi bilan ifodalanadi.

Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi o'z navbatida o'z-o'zini hurmat qilish sohasida ham ustuvorlikka ega. Shaxs o'z-o'zini hurmat qilar ekan, albatta o'zining muvaffaqiyat yo'lini to'g'ri belgilashga, shu yo'lda og'ishmay harakat qilishiga turtki bo'ladi. Shunday ekan, shaxsning rivojlanishida avvallo o'ziga munosabatni, aynan o'z-o'zini hurmat qilishni tarbiyalash orqali uning muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini oshirishga erishish mumkin.

O'z qo'li bilan ko'p narsa qila oladigan shaxslarda ham muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi yuqori korrelyatsion bog'liqlikka ega. Zero, shaxsning o'ziga bo'lgan hurmati, motivatsiyasi aynan qo'lidan ish kelishi va salohiyatiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Yil sayin ortib brogan tajriba o'z hayot tarzini o'zgartirish, rivojlantirish istagini uyg'otar ekan, shu o'rinda qo'lidan keladigan ishlar sarhisob etiladi. Mazkur jarayonda amalga oshira oladigan ishining miqdor va sifat ko'rsatkichlari e'tiborga olinib, daromadni oshirishga intiladilar. Bunda albatta tashqi ko'rinishga e'tibor va o'ziga bo'lgan ishonch ham ortadi. Korrelyatsion aloqadorlik ushbu jihatlarda ham bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda.

Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi o'z navbatida shaxsning irodaviy sifatlariga ham bog'liq. Jumladan, irodali shaxslar o'z ustida ishlashi va muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsion jabhasiga e'tibor qaratadilar. Iroda kuchi o'z maqsadi yo'lida harakat qilishga, qiyinchiliklarni engib o'tishga, muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda vaziyatni oqilona baholash va muammolarni bartaraf etishga, shunindek, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishda muhim millardan biri sanalishi tadqiqotimizda o'z isbotini topdi.

Xulosa. Tadqiqotdan olingan natijalar yuzasidan quyidagi xulosalarni keltirib o'tamiz:

Birinchi, ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi past va ularda muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv motivatsiyasi ustunlikka ega.

Ikkinchi, ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslar o'ziga xos motivlar kurashini boshidan kechradi va bu ularning muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur holatda ma'naviy motiv ustunligi muvaffaqiyatga intilish istagini kuchaytirishi mumkin.

Uchunchidan, ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslarda shaxs sifatidagi ustuvor orientatsiyalar, o'z oldiga maqsad qo'yish va unga erishish uchun harakat qilish istagi yuqori emas. Ya'ni, shaxs sifatidagi ustuvor orientatsiyalarning yaqqol emasligini kuzatish mumkin.

To'rtinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslarda o'z-o'zini hurmat qilish, o'z qo'li bilan ko'p narsa qila olish, tashqi ko'rinishga e'tibor, o'ziga bo'lgan ishonch past darajada ekanligini hisobga olib, bu holat ularning boshqalardan kutishiga, o'z manfaatlarini o'z g'alar manfaatidan ustun qo'yish istagini yuqori bo'lishiga, dangasalik va boqimandalikka moyil shaxs bo'lishlariga sabab bo'ladi.

Beshinchidan, shaxsning irodaviy holati uning muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatib, muvaffaqiyatsizlikdan tajriba olish hamda muvaffaqiyatga intilishida iroda kuchiga tayanib harakat qilish zaruratini ko'rsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslarda irodaviy sifatlar past emas, biroq, ulardagi motivlar kurashi ustunlikka egaligi ortidan, muvaffaqiyat uchun tavakkal qila olmasliklarini ko'rish mumkin. Shunday ekan, ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslar xulq-atvorida muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini oshirish uchun ulardagi ma'naviy motiv, shaxs sifatidagi ustuvor orientatsiyalar, o'z-o'zini hurmat qilish, o'z qo'li bilan ko'p narsa qila olish, tashqi ko'rinish, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga qaratilgan choralarni ko'rish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. - СПб.: Питер 2001. -288 с.
2. Васьяковская Г.А. (2018). Особенности внедрения педагогических технологий профильного обучения. Балканское научное обозрение, 1, 76-79. ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ, 2022, № 9(165) 176 ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ, 2022, № 9(165)
3. Варданян И. С. Новые тенденции в мотивации персонала / И. С. Варданян // Управление персоналом. – 2005. – № 9/10. – С. 93–95.
4. Гордеева, Т. О. Мотивация достижения: теории, исследования, проблемы // Современная психология мотивации / под ред. Д. А. Леонтьева. – М.: Смысл, 2012 – С. 47–103.
5. Зверева Р.Г. Развитие мотивации достижения успеха как условие формирования конкурентоспособности личности студента // Семья и личность: проблемы взаимодействия. Издательство: Армавирский государственный педагогический университет (Армавир) 2018. № 10. С. 30-37.
6. Кондратьева М. В. Развитие мотивации достижения у студентов вузов: учеб.-метод. пособ. / М. В. Кондратьева. – Ставрополь: Изд-во СевКав ГТУ, 2005 – 104 с.
7. Костромина С.Н., Дворникова Т.А. (2016). Психологические факторы формирования когнитивных стратегий обучения у студентов. Вестник Санкт-Петербургского университета, Психология, 4, 110-119.
8. Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы и эмоции / А.Н. Леонтьев. – Изд. Московского Университета, 1971. Режим доступа: https://royallib.com/book/leontev_aleksey/potrebnosti_motivi_i_emotsii.html.
9. Малышкин, Н., Халимон, Е. (2018). Анализ уровня развития цифровой экономики России. Вестник университета. Извлечено из: <https://vestnik.guu.ru/jour/article/view/1118>.
10. Толканук, З. А. (2019). Профессиональное самоопределение молодежи как фактор подготовки компетентного специалиста. Балканский научный обзор, 3, 2(4), 57-59.
11. Ткач Р.С., Ткач Е.Н. Мотивация достижения успеха как субъектный ресурс учебно-профессиональной деятельности студентов вуза // Проблемы высшего образования. 2019. № 1. С. 446-449.
12. Atkinson, J. W., & Feather, N. T. (1966). A theory of achievement motivation. Huntington, NY: John Wiley and Sons.
13. Glynn, S., Aultman, L., & Owens, A. 2005 Motivation To Learn In General Education Programs. The Journal of General Education, p. 54 p.2
14. McClelland, D. 1963 The achievement motive in economic growth. In B. F. Hoselitz & W. E. More (Eds.), Industrialization and society (pp. 74-96). The Hague: UNESCO & Mouton.